

## **ARAB TILIDA SON KATEGORIYASI (BIRLIK, IKKILIK VA KO'PLIK)**

**Baxtiyorova Durdon Akramjon qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

durdonabaxtiyorova571@gmail.com

**Umurzakova Aygul Umarovna**

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada arab tilidagi son kategoriyasi birlik, ikkilik va ko'plik shakllarining grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada bu shakllarning morfologik tuzilishi, jumladagi o'rni va ularning ot bilan moslashuvi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot arab tilidagi son kategoriyasini o'r ganayotgan talabalar uchun foydali bo'lib, nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitadi.

**Kalit so'zlar va iboralar:** arab tili, son kategoriyasi, birlik, ikkilik, ko'plik.

*Аннотация.* В данной статье анализируются грамматические и семантические особенности категории чисел в арабском языке, включая формы единственного, двойственного и множественного числа. В статье рассматриваются морфологическая структура этих форм, их роль в предложении и согласование с существительными. Исследование будет полезно для студентов, изучающих категорию чисел в арабском языке, так как оно обогащает теоретические знания практическими примерами.

**Ключевые слова и фразы:** арабский язык, категория чисел, единственное число, двойственное число, множественное число.

*Annotation.* This article analyzes the grammatical and semantic features of the numerical category in the Arabic language, focusing on the forms of singular, dual, and plural. The article examines the morphological structure of these forms, their roles in sentences, and their agreement with nouns. This study is useful for students studying the numerical category in Arabic, as it enriches theoretical knowledge with practical examples.

**Keywords and phrases:** Arabic language, numerical category, singular, dual, plural.

Arab tili grammatikasi dunyoning eng murakkab va boy grammatik tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda son kategoriyasi o'ziga xos o'rinn tutadi. Arab tilida son shakllari uch asosiy turga bo'linadi: birlik (المفرد) (المعنى) va ko'plik (الجمع). Bu shakllar o'zining lug'aviy ma'nosi va grammatik vazifasi bilan arab tilining morfologik tizimini boyitadi. Mazkur maqola arab tili son kategoriyasining ushbu shakllarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan.

### **1. Birlik (المفرد)**

Birlik shakli birgina narsa yoki shaxsni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu shakl arab tilida sonning oddiy va eng asosiy ko‘rinishidir. Misollar:

كتاب (kitob) – *bir kitob*

طالب (talaba) – *bir talaba*.

## **2. Ikkilik (المثنى)**

Ikkilik shakli arab tilining o‘ziga xos jihatlaridan biri bo‘lib, ikkita narsani yoki shaxsni ifodalash uchun maxsus shakllantiriladi. Ikkilik shakli arab tilining boshqa ko‘plab tillardan farq qiluvchi xususiyati sifatida katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bu son kategoriyasi faqat ism so‘z turkumidagi so‘zlarda emas balki fe’llarda ham mavjud. Bu kategoriya sintaktik va morfologik jihatdan hosil qilinadi. Mustafo G‘alayiniy ikkilik son kategoriyasini "Ma’no jihatidan aynan bir narsani ikkita ifodalash" deb aytadi.

Ikkilik shakllari odatda birlik otga “-ان” yoki “-ين” qo‘shimchasi qo‘shish orqali hosil qilinadi:

كتاب (ikkita kitob) – bosh kelishikda;

كتابين (ikkita kitob) – tushum va qaratqich kelishigida.

➤ “ة” (ta marbuta) bilan tugagan muannas jinsidagi so‘z “ت” ga o‘zgartirgan oxiriga qo‘shiladi. Masalan:

طالب – *talaba*

طلاب – *ikkita talaba*

➤ “ء” (ta marbuta) bilan tugagan muannas jinsidagi so‘z “ء” ga o‘zgartirgan holda “ة” (ta marbuta) bilan tugagan muannas jinsidagi so‘z “ء” ga o‘zgartirgan holda “ـان” qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan:

طالبة – *talaba qiz*

طالبات – *ikkita talaba qiz*

جامعة – *universitet*

جامعات – *ikkita universitet*

➤ “ـاء” (alif maqsura) bilan tugagan so‘zlardan “ـاء” belgisi o‘rniga “ـان” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Masalan:

صحراء – *sahro*

صحراءن – *ikkita sahro*

➤ Ayrim ikki undoshli o‘zakdan iborat so‘zlardan ham “ـان” qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Masalan:

أخ – *aka-uka*

أخوان – *ikki aka-uka*

➤ “ـى” (alif maqsura) bilan tugagan so‘zlardan “ـىان” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Masalan:

مستشفى – *shifoxona*

مستشفيان – *ikkita shifoxona*

## **3. Ko‘plik (الجمع)**

Ko‘plik shakli uch yoki undan ortiq shaxs, predmet va voqeа-hodisa haqida ketganida ishlatilaladi. Ko‘plik arab tilida ikki asosiy turga bo‘linadi.

1. To‘g‘ri ko‘plik (الجمع السالم). Bu shakl erkak va ayol jinslar uchun alohida qoidalarga ega. Bu ham o‘z o‘rnida ikkiga bo‘linadi.

✓ To‘g’ri muzakkar ko‘plik (جمع المذکور السالم), birlikdagi muzakkar so‘zga “يُون” “يُون” qo‘shish orqali yasaladi. Masalan:

– معلم – *o‘qituvchi*

– معلمون – *o‘qituvchilar*

✓ To‘g’ri muannas ko‘plik (جمع المؤنث السالم), birlikdagi muannas so‘zga “ات” “ات” qo‘shish orqali yasaladi. Masalan:

– مترجمة – *tarjimon*

– مترجمات – *tarjimonlar*

Ko‘proq to‘g’ri ko‘plik kasb-hunar, qarindosh urug‘chilik ma’nosini bildirgan so‘zlardan yasaladi.

2. Siniq ko‘plik (جمع التكسير). Bu shakl an’anaviy qoidalarga bo‘ysunmaydi va lug‘aviy o‘zgarish orqali hosil qilinadi. So‘z o‘zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o‘zgarishi, noo‘zak harflarning qo‘shilishi, so‘z ichki tarkibining o‘zgarishi, qisqa qilib aytganda, so‘z vaznining o‘zgarishi orqali yasalgan ko‘plikka siniq ko‘plik deyiladi. Masalan:

– طالب – *talaba*

– طلاب – *talabalar*

– غرفة – *xona*

– غرف – *xonalar*

Siniq ko‘plikni yasash uchun juda ko‘p qoliplardan foydalilanadi. Shuning uchun ularni ma’lum bir vaznga solish mushkul, chunki bir xil vazndagi so‘zlarning siniq ko‘pligi turlicha bo‘lishi yoki birlikda har xil vaznda bo‘lgan so‘zlarning ko‘pligi bir xil bo‘lishi mumkin. Masalan:

– قلم – *ruchka, qalam*

– أقلام – *ruchkalar, qalamlar*

– جمل – *tuya*

– جماليات – *tuyalar*

Eng ko‘p uchraydigan qoliqlar quyidagilar: **أفعال، فعل، فعل**

Arab tilidagi birlik, ikkilik va ko‘plik shakllari tilning boy morfologik tizimini aks ettiradi. Ikkilik shakli arab tili grammatikasining o‘ziga xos xususiyati bo‘lsa, ko‘plikning to‘g’ri va siniq ko‘plik turlari tilni yanada boyitadi. Ushbu maqola arab tilining son kategoriyasini o‘rganishda talabalar uchun foydali manba sifatida xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2019, (54-57 betlar).
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (38-40 betlar).
3. Hifniy Nosir, Muhammad. Diyab va boshqalar. Ad-Durus an- Nahviyyah. Darslik. – Toshkent, 2010, (15 bet).
4. Носиров О., Юсупов М. Ах-На’йм арабча-ўзбекча луғати. – Наманган, 2014.
5. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)